

XXI ASR O‘ZBEK SHE‘RIYATIDA IJTIMOY-SIYOSIY MUAMMOLARNING TADRIJIY TALQINI

Narzullayeva Sevara Nodirbek qizi
CHDPU magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20427699>

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada XXI asr o‘zbek she‘riyatida ijtimoiy-siyosiy muammolarning badiiy talqini, modernistik tafakkur va poetik shakllarning o‘zgarish jarayonlari tahlil qilinadi. Mustaqillikdan keyingi davr she‘riyatida milliy identitet, tarixiy xotira, erkinlik, migratsiya, urbanizatsiya, ma‘naviy inqiroz va ommaviy madaniyat kabi masalalarning poetik ifodalanishi yoritilgan. Shuningdek, Faxriyor, Abduvali Qutbitdin, Bahrom Ro‘zimuhammad, Shodmonqul Salom, Iqbol Mirzo kabi ijodkorlar she‘riyati misolida ramziylik, semiotik va hermenevtik tahlil usullarining o‘ziga xos jihatlari ochib berilgan.

KALIT SO‘ZLAR: XXI asr she‘riyati, o‘zbek she‘riyati, modernizm, postmodernizm, poetik tafakkur, ijtimoiy-siyosiy muammolar, ramziylik, hermenevtika, semiotika, intertekstuallik, milliy identitet.

THE GRADUAL INTERPRETATION OF SOCIO-POLITICAL PROBLEMS IN 21ST CENTURY UZBEK POETRY

Narzullayeva Sevara Nodirbek qizi
Master’s Student of CHDPU

ABSTRACT: This article analyzes the artistic interpretation of socio-political issues, modernist thinking, and the transformation of poetic forms in 21st century Uzbek poetry. It highlights the poetic expression of such themes as national identity, historical memory, freedom, migration, urbanization, spiritual crisis, and mass culture in the poetry of the post-independence period. Furthermore, the article reveals the distinctive features of symbolic, semiotic, and hermeneutic analysis through the poetry of poets such as Faxriyor, Abduvali Qutbitdin, Bahrom Ro‘zimuhammad, Shodmonqul Salom, and Iqbol Mirzo.

KEYWORDS: 21st century poetry, Uzbek poetry, modernism, postmodernism, poetic thinking, socio-political issues, symbolism, hermeneutics, semiotics, intertextuality, national identity.

Kirish (Introduction). XXI asrga kelib, O‘zbekiston hududida yashovchi aholi, uning muammolari, ijtimoiy hayot va siyosiy jamiyatdagi faolliklar she‘riyatga ham bevosita ko‘cha boshladi. Mustaqillikdan keyingi adabiy mafkuraning bir necha yangi bosqichlarni bosib o‘tishi va insonning ichki olami, qalb tug‘yonlari, tushunchalari hamda fikr dunyosi biroz o‘zgara boshladi. Siyosiy o‘zgarishlar va ijtimoiy muammolarga xalq tilidan erkin munosabat bildira olish tushunchasi she‘riyatda bevosita lirik qahramon orqali amalga oshirildi. Endi ushbu davrda shoirlar faqat go‘zallik va muhabbat tushunchalari bilan emas, balki insonning ijtimoiy jamiyatdagi roli, ahamiyati, istiroblari, bosim, ma‘naviy bo‘shliq kabi tushunchalarni ham she‘riyatda ilgari sura boshladilar.

Asosiy qism (Main Part). Zamonaviy she‘riyatda ramziy tasvirlarning turli ko‘rinishlari, metaforik qatlamlar va psixologik konfliktlarga oid tushunchalar ham kirib kela boshladi. “*Falsafiy mushohada ramziylik bilan uyg‘unlik kasb etdi. XXI asr she‘riyati estetik hodisa sifatida emas, balki jamiyat hayotidagi ijtimoiy, ruhiy va hayotiy voqea-hodisalarga siyosiy tus beruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘ldi*”¹. Ushbu davrda erkinlashish, qat‘iy vazn va qofiyalardan uzoqlashish, she‘r

¹ Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Darslik. –T.: Fan, 2007.

shaklining erkinlashgan uslublari bevosita ko'zga tashlana boshladi. Inson ruhiyatidagi parchalanish, jamiyatdagi notinchlik va ichki ziddiyatlar tabiiy ifoda sifatida shakllandi.

Faxriyor she'riyatining ayrim jihatlarida ramziylik obrazlar vositasida shakllangan bo'lib, bunda sintaktik parchalanish she'riyatda kuchli begonalashuvni modernistik talqinda namoyon etdi. *“Shahar uyquda emas, odamlar uyquda”* kabi misralar bir tomondan tanqid, ikkinchi tomondan falsafiy mushohadaga oid she'riy shakllarning bir parchasi sifatida qaraladigan bo'ldi. Poetik asarlarda tashqi hayot va inson qalbi, ya'ni ong bilan bog'liq tushunchalar ham qarama-qarshi qo'yildi. *“Uyqu”* tushunchasi Faxriyor talqinida semiotik jihatdan turli ma'nolarni bildiradi va loqayd bo'lmaslikni, jamiyatda o'z o'rnini egallayotgan insonlar qatori O'zbekiston aholisi ham faol harakat qilishi kerakligini ifodalaydi.

Abduvali Qutbitdin she'riyatida esa tarixiy haqiqatlar va folklorga oid tushunchalar mifologiya bilan bevosita qorishiq shaklda namoyon bo'la boshladi. Falsafiy talqinning modernistik jihatlari insoniyatning madaniy rivojlanishi, ma'naviy yolg'izlik va qadriyatlarining susayib borayotganligi kabi masalalarga urg'u berdi. Bunda zamonaviylikning mentalitet bilan qarama-qarshi qo'yilishi, global hayot va zamonaviy turmush tasvirlari ham bunga misol bo'la oladi.

Shuningdek, XXI asr she'riyatida xalqona poetik ruh ham modernistik shaklda rivojlana boshladi. Bunda zamonaviy dunyo she'riyatiga xos bo'lgan hokkular ham namunaviy shakl sifatida qo'llanildi va xalqona ruh modernistik talqinda singdirildi. Bunga sabab 5, 7, 8, 9 bo'g'inli she'rlarning xalqona uslubga xos ekanligi va ularning tez o'zlashtirilishidir. Xalq og'zaki ijodining tutgan o'rni ahamiyatli bo'lgani bois, bunday janrlarning mavqeyi ham ortib bordi. Ijtimoiy-siyosiy muammolarni bir necha bosqich asosida tahlil qilish mumkin. *“Mustaqillik davri she'riyatida romantizm tushunchasi 2000-yillar atrofidagi she'riyatda milliy uyg'onish, ozodlik va istiqloq ruhiyatidan shukronalik, shoir erkinligini ulug'lash, tarixiy xotirani tiklash va unga hurmat ko'rsatish kabi optimistik tushunchalar bilan ifodalandi”*².

Ikkinchi bosqichda esa ijtimoiy-tanqidiy ruh kuchaydi. 2010-yillarga kelib she'riyatdagi real muammolar ochiq tasvirlana boshlandi. Bunda chet elda yashayotgan o'zbeklarning hayoti, migratsiya, ishsizlik kabi tushunchalar, ayniqsa korrupsiyaning namoyon bo'lishi, ma'naviy bo'shliq va inson shaxsiyatining qadrsizlanishi ijtimoiy muammolarga yaqqol tus berdi.

Shodmonqul Salom she'rlarida tabiat obrazlari orqali jamiyatning ruhiy inqirozi va muammolarini ifodalashga alohida e'tibor qaratilgan. Bunda intertekstual uslublari va semiotik tasvir vositalari orqali *oy, tun, yomg'ir* kabi timsollar ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Ushbu obrazlar orqali jamiyatdagi insonlarning ichki istiroblari qalamga olindi. Lirik qahramon ko'pincha yolg'iz, istiroblarga to'la va savol ohangidagi tasvirlarda namoyon bo'ldi. Shu bilan birga, o'sha davrda insonlarning hayot bilan munosabatlari, yaxshilik va yomonlik, do'stlik, muhabbat kabi tushunchalar Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Iqbol Mirzo, Sirojiddin Sayyid va boshqa ijodkorlar she'riyatida ham bevosita ko'zga tashlana boshladi.

Germenevtik tahlil jihatidan she'r matnidagi yashirin ma'nolarning ochilishi XXI-asr she'riyatiga xos tarzda ifodalanadi. Ma'lum bir muammo yoki masalani izohlash va yoritishda ramziylik hamda germenevtik usullar katta rol o'ynaydi. Jumladan, Faxriyor she'rlarida sukunat obrazi orqali *“jimjitlik yillari”*ga oid ma'nolar ifodalangan. Jamiyatdagi qo'rquv va ruhiy bosimning o'ziga xos tarzda shakllanishi ijtimoiy vaziyatni yuzaga keltirgan. *“Devorlar gapiradi, odamlar jim”* kabi ifodalarda jimlik qo'rquv ostidagi jamiyatga urg'u sifatida talqin qilinadi. Ammo boshqa adabiyotshunoslar ushbu she'rni boshqa jihatlar bilan ham bog'laydilar.

² Vohidov R, Hoshimova M. She'riyat - shoir yuragi. Toshkent: “Fan”, 1987, 68-bet.

Semiotik tahlil jihatidan tun ruhiy zulmat va ijtimoiy hayotdagi bosim hamda manipulyatsiya bilan bog‘liq bo‘lsa, yo‘l tushunchasi taqdir yo‘li, izlanish va migratsiya bilan bog‘lanadi. Shaharlar esa begonalashuv timsoli sifatida talqin qilinadi, chunki ular o‘sha davrda modernistik kayfiyatni ifodalagan. Derazalar esa umid, yorug‘lik va ertangi hayotga bo‘lgan ishonch ramzi sifatida ko‘rsatiladi. Qush obrazi ozodlik va parvoz timsoli bo‘lsa, yomg‘ir ruhiy poklanish va tozalikni ifodalaydi.

XXI asr she‘riyatidagi muammolardan yana biri tijoratlashuv va ommaviylik bosimidir. Ommaviy madaniyat tushunchasi she‘riyatimizda ham bevosita aks eta boshladi. Yoshlarning g‘arb mamlakatlariga taqlid qilishi va milliy madaniyatdan chetlashuvi kabi holatlar ham she‘riyatda tanqidiy ruhda tasvirlana boshladi

XXI asrdagi muammolardan yana biri — chuqur falsafiy qatlamlarning kamayishidir. *“She‘riyatda yengil-yelpi va odatiy mazmundagi she‘rlar ham paydo bo‘la boshladi. Bunda ijtimoiy hayot ta‘sirida kayfiyat ko‘tarishga qaratilgan she‘rlarning sayozlashuvi kuzatildi, deb qarash mumkin”*³. Falsafiy qatlamning kamayishi — insonlarning ramzlar va intertekstual uslublar asosida yaratilgan chuqur ma‘no kasb etuvchi she‘rlardan ko‘ra oddiylik va soddalikka asoslangan she‘rlarni afzal ko‘rishi bilan izohlanadi.

Keyingi muammolardan biri — ijtimoiy tarmoqlar ta‘sirida poetik soddalashuvdir. Global dunyoda zamonaviy axborot texnologiyalarining kundalik hayotimizga kirib kelishi natijasida ijtimoiy tarmoqlar ta‘sirida xalqning poetik ongi va saviyasida ma‘lum darajada soddalashuv yuzaga keldi hamda o‘zbek tilining buzilishi va turli nuqsonlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Bu esa o‘z navbatida she‘riyatdan chetlashish va unga nisbatan hurmatsizlik kabi tushunchalarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

Ijtimoiy muammolardan biri — kitobxonlik madaniyatining pasayishidir. Bu dolzarb muammolardan biri bo‘lib, bunda ommaviy madaniyat va globallashuv tushunchalari bilan bog‘liq masalalar keng mushohadaga olindi. Kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan ko‘plab tadrijiy ishlarni amalga oshirish zarurligi ta‘kidlandi.

Erkin she‘r vaznlarining shakli tartib va tamoyillarga asoslanmagan holda ifodalanishi va e‘lon qilinishi kabi holatlar jamiyatimizda qonun-qoidalarsiz erkinlikka bo‘ysunuvchi she‘r shakllarini yaratish bilan “shoir” degan nom olish mumkin ekanligi haqidagi qarashlarning shakllanishiga olib keldi.

XXI asrda tafakkurning soddalashuvi, siyosiy bosimlar, ma‘naviy inqirozlar va ijtimoiy madaniyat kabi tushunchalar ramziy obrazlar orqali ifodalanish xususiyatini qo‘lga kiritdi. *“Erkin, poetik shaklning modernistik tafakkur bilan ifodalanishi, intertekstual bog‘liqlikning semiotik va ramziy ma‘nolardan uzoqlashishi, falsafiy mushohadalarning o‘zbek she‘riyatidan biroz chetlashgani ko‘zga tashlandi”*⁴. Mustaqillik yillaridagi she‘riy rivojlanish bosqichlari keyingi yillarda ham davom etdi. XXI asr she‘riyatidagi muammolar va ijtimoiy-falsafiy kayfiyatni bir necha bosqichlarga bo‘lib o‘rganish mumkin.

Birinchi bosqich 2000–2005-yillar davomiyligida mustaqillik eyforiyasi va milliy uyg‘onish poetikasi bilan bog‘liqdir. Bunda she‘riyatdagi asosiy masala milliy identitet, o‘zbek xalqining milliy qiyofasini butun dunyoga namoyon etish, istiqloq, tarixiy xotira va ozodlik tushunchalari bilan bog‘liq bo‘ldi. Aynan 1991-yildan so‘ng 2000-yilga qadar tarixiy xotiraga oid she‘riy va adabiy shakllarning rivojlanishi buning yaqqol misolidir. Davomiy shaklda 2000–2005-yillarda milliy

³ Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.

⁴ Rahimjonov N. Shoir va davr. -Toshkent: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1983, 184-bet.

identitet, tarixiy xotira va o'zlik tushunchalari asosiy o'rinlarni egalladi. *“Bunda poetik diskurs romantik-patriotik, ya'ni xalqona ruhdagi xarakter katta ahamiyat kasb eta boshladi”*⁵.

Abdulla Oripov, Erkin Vohidov kabi shoirlarning she'riyati ushbu davrda o'zbek xalqining siyosiy jihatdan shakllanishi va milliy qiyofasini namoyon etishda katta rol o'ynadi. Halima Xudoyberdiyeva, Sirojiddin Sayyid, Muhammad Yusuf kabi ijodkorlar ushbu davrda keng ko'lamli ijod qildilar. Muhammad Yusufning *“Men dunyoni nima qildim, o'zing yorug' jahonim”* deb boshlanuvchi she'ri vatanga muhabbat va o'zbek xalqining milliy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy muammolarga yechim sifatida talqin qilinadi. Bunda sintaktik soddalik va chuqur semantik ma'no uyg'unligi o'zbek xalqining tarixi, buguni va ertasi haqida so'zlovchi asar sifatida namoyon bo'ladi.

Sirojiddin Sayyid she'riyatida vatan geografik tushuncha emas, balki metafizik makon sifatida qalblarda yashashi kerakligiga urg'u berilgan bo'lsa, Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida muqaddaslik, ayollarga hurmat hamda obrazlarni millat va jamiyat bilan bog'lash kabi tushunchalar ko'zga tashlanadi. Ayni davrda ayollarning she'riyatdagi faolligi ham sezilarli darajada ortdi. Guljamol Asqarova, Gulandom Tog'ayeva, Gulnoz Mo'minova kabi shoirlar ham samarali ijod qildilar.

Ikkinchi bosqich esa 2005–2012-yillarni qamrab olib, ijtimoiy realizm va ma'naviy inqiroz poetikasi bilan bog'liqdir. Ushbu davrda Bahrom Ro'zimuhammad va Shodmonqul Salom asarlari o'ziga xosligi bilan ko'zga tashlanadi. Abduvali Qutbitdinning *“IzoHSiz lug'at”* she'rida semantik bo'shliq va fenomen tushunchalari ifodalangan. Bahrom Ro'zimuhammadning *“Yolg'izlik”* she'rida *“Bu kechalar odamga to'la, odam esa yo'q”* kabi falsafiy mazmunli misralar mavjud. Aziz Saidning *“Qor yog'ayotgan kecha”* she'rida esa qor sukunat va ijtimoiy sovuqlik metaforasi asosida talqin etiladi.

Keyingi bosqich 2012–2018-yillarda migratsiya, urbanizatsiya va begonalashuv poetikasi bilan bog'liq bo'ldi. Bunda Iqbol Mirzoning *“Toshkent”*, Jamol Kamolning *“Musofir”*, Rustam Musurmonning *“Bekat”*, G'ulomjon Akbarning *“Metrodagi odam”*, Zebo Mirzoning *“Ayolning jimligi”* hamda Farida Afrozning *“Qora deraza”* kabi she'rlari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. *“Ushbu asarlarda urbanizatsiya, migratsiya, ijtimoiy hayot va ularning ortidan keladigan muammolar ichki tragediya va psixologik holatlar orqali tanqidiy hamda tavsifiy usulda ifodalangan”*⁶.

To'rtinchi bosqich esa 2018–2026-yillarda siyosiy-falsafiy poetika va individual ong oqimi asosida shakllandi. Bunda Go'zalbegim, Xosiyat Rustam va Nodira Afoqova asarlari jamiyat hayoti bilan bevosita bog'liq tushunchalar asosida shakllangan. Germenevtik jihatdan siyosiy ichki senzura, ruhiy holat, intertekstuallik va ma'nolarning turli so'z qatlamlariga yashirilishi kabi tushunchalar ifodalangan. Tunning qo'rquv timsoli, metroning mexanik jamiyat, derazaning erkinlikka intilish va yopiqlik, qorning sovuqlik, qushning ozodlik, ko'zguning identitet krizisi, bekatning o'tkinchilik, yo'lning esa taqdir va migratsiya ramzi sifatida talqin qilinishi aynan ushbu she'riy shakllarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Xulosa (Conclusion). Xulosa qilib aytganda, XXI asr o'zbek she'riyati ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy va falsafiy muammolarni badiiy jihatdan ifodalashda yangi bosqichga ko'tarildi. Mustaqillikdan keyingi davrda she'riyatda milliy identitet, tarixiy xotira, erkinlik, migratsiya, urbanizatsiya, ommaviy madaniyat va ma'naviy inqiroz kabi masalalar yetakchi mavzularga

⁵ Norboyev B. Hayotni poetik talqin etish tamoyillari va mahorat muammolari. Filol. fan. d-ri..dis. avtoref. -Toshkent: 1996, 54-bet.

⁶ Solijonov Y. Hozirgi o'zbek lirikasi. O'quv-uslubiy qo'llanma, 2009

aylandi. Zamonaviy shoirlar ijodida ramziylik, semiotika, germeneytik tahlil va intertekstuallik kabi usullar keng qo'llanilib, poetik tafakkurning modernistik va postmodernistik shakllari namoyon bo'ldi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Rahimjonov N. Shoir va davr. -Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983, 184-bet.
2. Vohidov R, Hoshimova M. SHE'riyat - shoir yuragi. Toshkent:“Fan”, 1987, 68-bet.
3. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Darslik. –T.: Fan, 2007.
4. Norboyev B. Hayotni poetik talqin etish tamoyillari va mahorat muammolari. Filol. fan. d-ri..dis. avtoref. -Toshkent: 1996, 54-bet.